



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH .

Qodirov Akbar Shuhratovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

,Matematika va ta'limda axborot texnologiyasi kafedrasi katta o'qituvchisi

E- mail: akbar2005ak@gmail.com

Eshmurodova Nozima Zokir qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

E- mail: nozimaeshmurodova4@gmail.com

Annatatsiya : *Ushbu maqola zamonaviy jamiyatda tobora dolzarb ahamiyat kasb etayotgan axborot madaniyati masalasiga asosiy e'tibor qaratiladi. Unda maktabgacha yoshdagi bolalarda axborotni to'g'ri qabul qilish va undan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida oila hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'rni yoritiladi. Shuningdek, ushbu ikki muhim institut o'rtasidagi hamkorlikning natijalari va bu jarayonning bola shaxsiy rivojlanishiga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *Maktabgacha ta'lim, tashkilot, oila, bola, axborot, hamkorlik, axborot madaniyati, ma'lumot.*

Annatation: *This article focuses on the issue of information culture, which is becoming increasingly important in modern society. It highlights the role of families and preschool educational institutions in developing preschool children's ability to correctly perceive and effectively use information. Additionally, it analyzes the outcomes of cooperation between these two important institutions and their positive impact on a child's personal development.*

Keywords: *Preschool education institution, family, child, information, cooperation, information culture, data.*

Аннотация: *Данная статья посвящена проблеме информационной культуры, которая приобретает всё большую актуальность в современном обществе. В ней освещается роль семьи и дошкольных образовательных организаций в формировании у детей дошкольного возраста навыков правильного восприятия и эффективного использования информации. Также анализируются результаты взаимодействия этих двух важных институтов и их положительное влияние на личностное развитие ребёнка.*

Ключевые слова: *Дошкольное образовательное учреждение, семья, ребёнок, информация, сотрудничество, информационная культура, данные.*

KIRISH. *Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar va media vositalarining roli kun sayin ortib bormoqda. Ta'limning boshlang'ich va eng asosiy bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim bosqichi esa bolaning tafakkuri, nutqi, estetik didi va ijodiy qobiliyatlari*



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



shakllanadigan muhim davrdir. Shu bois, bu jarayonda media vositalarini maqsadga muvofiq qo'llash ta'lim samaradorligini oshiradi, bolalarda mustaqil fikrlash va kuzatuvchanlikni rivojlantirish bilan cheklanib qolmay ularda ertangi kunga nisbatan boshlang'ich asos shakllanib boradi.

Axborot madaniyati — bu insonning axborot bilan ishlash jarayonidagi bilim, ko'nikma va odoblari majmuasidir. Bu tushuncha nafaqat texnik qurilmalardan foydalana olishni, balki olingan ma'lumotlarni saralash, tahlil qilish va ulardan to'g'ri maqsadlarda foydalanishni anglatadi. [5]

Adabiyotlar tshlili va metodlar. Maktabgacha ta'lim tizimida axborot madaniyati va axborot kommunikatsiya rivojlantirish bo'yicha ko'plab ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „Maktabgacha ta'lim tizimiga ilg'or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 11.iyundagi PQ-487-sonli "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada yanada takaomillashtirish chora-tadbirlari tog'risida"gi 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349 - sonli hamda 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli Ozbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq maktabgacha ta'lim sohasida ham ta'lim jarayonlarida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalaridan keng foydalanish ta'lim sifatini ta'minlovchi vositalardan biriga aylanmoqda.

Muhokama va natijalar. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ta'limning ilk bosqichi bo'lgan maktabgacha ta'lim sohasiga kiritilishi pedagog xodimlarning oldiga katta mas'uliyat qo'yilishi bilan birga, ularning o'z ustida ishlab, AKT bo'yicha bilimlarini oshirishni, shuningdek ularning izlanuvchanligi bilan bir qatorda kreativligini talab etadi. Maktabgacha ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishdan kutiladigan natijalar albatta maktabgacha ta'lim pedogoglari uchun balki bolalar uchun ham samaralidir. Foydalanishning asosiy jihatlari birinchidan, maktabgacha ta'lim sohasida ta'lim sifati va bolalarni maktabga tayyorlash samaradorligining yaxshilanishi; ikkinchidan, bolalarning erkin fikrlashi doirasi va dunyoqarashining kengayishi; uchinchidan, bolalarning intellektual, ijtimoiy-hissiy va ijodiy rivojlanishi darajasining oshishi; ota-onalar bilan maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligining yanada mustahkamlanishi va qulaylikni ta'minlashi bilan muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi bola hayotida o'yin - bu eng asosiy faoliyat turi hisoblanib, u bola shaxsining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Axborot madaniyatini shakllantirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari oldiga bir qator vazifalarni qo'yadi. Eng avvalo, pedagog kompyuter o'yinlarini va ta'lim dasturlarini yetarlicha bilimga ega bo'lgan va kundalik hayotda qo'llay oladigan bo'lishi, olib borilayotgan ta'lim-tarbiya faoliyatida bevosita global internet tarmog'i resurslaridan unumli foydalana olishi lozim. Keyingi o'rinda esa o'yinlarni tanlashda bolaga boshchilik qilishi kerak. Kompyuter o'yinlaridan foydalanar ekan, tarbiyachi o'yinlarning bola yoshi va axloq me'yorlariga mos kelishini hisobga olishi kerak. Kompyuter o'yinlaridan foydalanish bolalarga ta'lim berish samaradorligini oshirish bilan birga bolaning aqliy va ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda ijobiy natija beradi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Power Point dasturida bola rasm chizish jarayonida tasvirlagan predmet yoki hayvon, tabiat manzarasi yoki odam rasmiga rang tanlashi, turli xil natijada o'z ishini baholashi davomida uning individual shaxs xususiyatlari, qiziqishlari ortadi va uning his - tuyuladi oddiy qog'ozga rasm chizgandan ko'ra yaqqolroq ifodalanadi. Shu bilan birga AKT bolaga interfaol ta'lim berish vositasi sifatida bolaning yangi bilimlarni tez o'zlashtirishiga va dunyoqarashini kengayishiga imkon beradi. Bu interfaol kompyuter o'yinlari tarbiyachi tomonidan davlat talablariga mos ravishda Power Point dasturida va mashg'ulotda bolalar bilan birga o'ynash uchun yaratilgan bo'lishi zarur. Masalan, o'yin faoliyat markazida "Bino quramiz", "Farqini top", "Xatoni top", "Shaklni joylashtir", "Rasmni bo'ya" ta'limiy o'yinlarni animatsion tasvirlar yordamida o'ynasa mavzuga oid berilgan bilimlarni bola zo'r qiziqish bilan o'zlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim konsepsiyasida ko'rsatilganidek, kompyuter bolaga alohida yondashuv imkonini yaratish jarayonda har bir bolada o'z intellektual darajasida va shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqib faoliyatlarni bajarishiga imkon bo'radi. Shu bilan birga, bolalarda kompyuter va smartfonlardan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, mazkur texnika vositalarining ijobiy imkoniyatlari bilan birga salbiy tomonlari ham mavjudligini nazarda tutish lozim va bu borada bolalar uchun ertak va hikoyalardan foydalanib axborot texnologiyalarini zararli bo'lgan tomonlarini ham tushuntirish va ularni xavfi qanday oqibatlariga olib kelishini tushunish lozim.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida AKTdan foydalanish va axborot madaniyatini va zamonaviy axborot texnologiyalari foydalanish bo'yicha pedagog kadrlarni bilim kampanentligi yetarli emasligi asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy axborot jamiyati sharoitida ta'lim tashkilotlarining muhim pedagogik vazifalaridan biri maktabgacha yoshdagi bolalarda axborot madaniyatini shakllantirish hisoblanadi. Ayniqsa, 5–6 yosh davri bu jarayon uchun eng qulay bosqichdir. Chunki aynan shu davrda bolaning aqliy faoliyati jadal rivojlanadi, hissiy-emotsional xususiyatlari shakllanadi hamda u atrof-muhit bilan faol muloqot qilishga intila boshlaydi.

Axborot madaniyati bir tomondan bolaning kelajakdagi shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishiga muhim ta'sir ko'rsatuvchi omil bo'lsa-da, boshqa tomondan, bu yoshdagi bolalar axborotni qabul qilish, uni tushunish va undan foydalanishning dastlabki ko'nikmalarini egallay boshlaydi. Ular turli axborot manbalari bilan ishlash, o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob topish, olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va maqsadli qo'llash orqali o'z bilimi va dunyoqarashini kengaytirib boradilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda axborot madaniyatini shakllantirishda oila asosiy o'rin tutadi. Ota-ona bola uchun axborot manbai, raqamli qurilmalardan to'g'ri foydalanishni o'rgatuvchi yo'l boshchi va axborotni saralash (filtrlash) ko'nikmasini tarbiyalovchi dastlabki muhitdir. Oilada bolaning kitobga qiziqishi, muloqot qobiliyati va axborotga nisbatan tanqidiy yondashuvi shakllanadi.

Oilaning bu boradagi roli quyidagi muhim jihatlarda namoyon bo'ladi:





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Raqamli gigiyena va nazorat: Ota-onalar bolaning ekran qarshisida o'tkazadigan vaqtini cheklashi, mazmuni yoshiga mos (ta'limiy, tarbiyaviy) axborotlarni tanlashiga ko'maklashishi lozim.

Axborotli savodxonlikka o'rgatish: Bolaga kitob o'qib berish, rangli rasmlar orqali ma'lumot olishni o'rgatish, savol-javob qilish orqali axborotni tahlil qilishni shakllantirish.

Ijoiy o'rnak bo'lish: Ota-onaning o'zi kitob o'qishi, axborotni izlash va undan to'g'ri foydalanish namunasi bo'lishi shaxsning ma'naviy faolligini oshiradi.

Ijtimoiy-madaniy muhit: Oilada o'zaro muloqot va axborot almashinuvi madaniyati orqali bolada axborot olish, saqlash va uzatish ko'nikmalari shakllanadi. [6]

Maktabgacha yoshdagi bolalarda axborot madaniyatini shakllantirish jarayoni bir qator jiddiy xavf-xatarlar ham mavjud, ular asosan bolaning jismoniy salomatligi, ruhiy rivojlanishi va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Eng asosiy xavf — bu bolaning hali shakllanmagan organizmi va ruhiyati uchun salbiy axborotni uzatilishi, u uzoq vaqt ekran qarshisida o'tirish natijasida ko'rish qobiliyatining pasayishi, harakat kamligi tufayli qomatning buzilishi va uyqu sifatining yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, virtual dunyoga haddan tashqari bog'lanib qolish bolada real muloqot ko'nikmalarining sustlashishiga, diqqat tarqoqligiga va yoshiga mos bo'lmagan, agressiv yoki qo'rqinchli kontentlar ta'sirida asab tizimining buzilishiga sabab bo'ladi. Axborot xavfsizligi nuqtayi nazaridan esa, filtrlanmagan ma'lumotlar bolaning hali shakllanayotgan dunyoqarashini noto'g'ri yo'naltirishi, milliy qadriyatlarga zid tushunchalarni singdirishi va uni kiber jinoyatlarga qarshisida himoyasiz qoldirishi mumkin. Oxir-oqibat, virtual olamdagi sun'iy tasvirlar bolaning real hayotiy tajribasini (predmetlar bilan ishlash, tabiatni his qilish) siqib chiqarishi natijasida unda dunyoni anglash jarayoni bir tomonlama va yuzaki bo'lib qolish xavfi mavjud.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda axborot madaniyatini shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Ushbu jarayon bolalarning aqliy, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi hamda ularning kelajakda to'g'ri qaror qabul qila oladigan, axborotni ongli ravishda tanlaydigan shaxs bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi. Axborot madaniyatini shakllantirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan bir qatorda oila ham muhim o'rin egallaydi. Ota-onalar va pedagoglarning o'zaro hamkorligi orqali bolalarda axborotdan to'g'ri foydalanish, uni tahlil qilish va baholash ko'nikmalari samarali rivojlanadi. Shuningdek, axborot texnologiyalaridan foydalanishda xavfsizlik, axloqiy me'yorlar va yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarni zararli axborotlardan himoya qilish, ularda raqamli madaniyat va mas'uliyat hissini shakllantirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biridir. Shunday ekan, maktabgacha yosh davridan boshlab axborot madaniyatini shakllantirish orqali jamiyatda bilimli, ongli va ma'naviy yetuk avlodni tarbiyalash mumkin.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar

1..O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining „Maktabgacha ta’lim tizimiga ilg‘or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 2019-yil 11.iyundagi PQ-48-son

2.Ilk qadam davlat o‘quv dasturi (tahrirlangan) 2022- yil 4- fevral.

3.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori "Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida" gi 2020 yil 23- dekabr PQ-802-son

4.Jalilova D. Ta’lim jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. “Sifatli ta’lim - taraggivot povdevori” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami // Toshkent, 2023-yil 20-aprel. 282-286-betlar.

5. <https://www.wosjournals.com/index.php/medical/issue/view/36>

6..<https://einfo.lib.uz/>

